

УДК: 72.01.

MAXDUMI A'ZAM TARIXI VA UNING ZIYORATGOHINING HOZIRGI HOLATI

Islamova Dilnoza G'ayratovna

katta o'qituvchi

Xalilova Shirin Abduazizova

“Shaharsozlik va landshaft arxitekturasini” magistranti

Samarqand davlat arxitektura-qurilish universiteti Samarqand, O'zbekiston

Annotatsiya: *Ushbu maqolada Samarqand viloyatining Oqdaryo tumanida joylashgan Maxdumi Azim yodgorligi tarixi, ziyoratgohidagi obodonlashtirish ishlari haqida ma'lumotlar berilgan. Shuningdek, Samarqand shahrining me'moriy obidalari bo'ylab sayyohlik yo'nalishini tashkil etish bo'yicha ko'rsatmalar berildi.*

Abstract: *This article provides information about the history of the Makhdumi Azim monument, located in the Okdarya district of Samarkand region, and the improvement works in the shrine. Also, instructions were given to organize a tourist route along the architectural monuments of the city of Samarkand.*

Kalit so'zlar: *Yodgorlik, ziyoratgoh, tarixiy joylar, tarix, yodgorlik, me'moriy yodgorliklar, landshaft dizayni, sayyohlik maskani, obodonlashtirish ishlari.*

Key words: *Monument, shrine, historical places, history, memorial, architectural monuments, landscape design, tourist destination, improvement works.*

KIRISH

Samarqand zaminida azaldan fan va ma'rifat, diniy va dunyoviy ilm rivojlangan. Ulug' allomalar, olimu fuzalolar nomi yetti iqlimga mashhur bo'lgan. Shu bois ham jaxonning ne-ne mamlakatlaridan ilm va ziyo istab doimiy ravishda shu diyorga intilishgan va ularning aksari Samarqand tuprog'ida mangu qo'nim topganlar.

Materiallar va usullar. Ana shunday ulug' zotlardan biri mutafakkir hazrati Maxdumi A'zamdir. Asl nomi Sayyid Ahmad Xoja Kosoniy taxminan 1463-64 yili Farg'ona vodiysining Kosonsoy shahrida dunyoga kelganlar. O'z yurtida va Toshkentda ilm olib kamolotga erishgandan keyin Shayboniy xukmdorlaridan Jonibek Sultonning taklifiga binoan Samarqandning Miyonqol vohasiga ko'chirib keltirishgan. U kishi kelganlaridan keyin bu vohani obodonlashtirib o'n tup tol ekadilar. Keyinchalik bu joy o'n tolga nisbat berilib Dahbed degan nom oladi. Maxdumi A'zam hazratlari 30 dan ortiq asarlar muallifi, Naqshbandiy tariqatining bilimdoni bo'lib, shayx maqomiga erishgan.[1]

O'z davrida yuzlab shogirdlarini tarbiyalagan Maxdumi A'zam Hazratlari 1542 yil Dahbedda vafot etadi. Maxdumi A'zam Hazratlarining qo'nim topgan joyiga ko'plab allomalar dafn qilingan. Kamolxon Kattayevning «Maxdumi A'zam va Dahbed» kitobida

yozilishicha, Daxma ustida yettita qabrtosh bo'lib ularning nomlarini keltirgan.(1-rasm)



1-rasm. «Maxdumi A'zam va Dahbed» kitobida yozilishicha, Daxma ustida yettita qabrtosh bo'lib ularning nomlarini keltirgan.

(https://samarkand.uz/about_region/shrines/maxdumi-azam-ziyoratgohi)

- 1.Hazrati Maxdumi A'zam (1542 yilda vafot etgan)
- 2.Hazrati Muhammad Amin-Xoja Kalon (1596 yilda vafot etgan)
- 3.Hazrati Xoja Xoshim (1163 yil vafot etgan)
- 4.Hazrati Xoja Muso ibn Xoja Xoluni (1642 yilda vafot etgan)
- 5.Hazrati Musaxon Xoja ibn Shaxiy Dahbediy (1776 yil vafot etgan)
- 6.Hazrati Xonxoja ibn Musaxon xoja Dahbediy (1784 yil vafot etgan)
- 7.Avliyoxoja ibn Xonxoja (1802 yilda vafot etgan).

Shuningdek, boshqa qabrtoshlarida quyidagilar nomi zikr etilgan:

- 1.Yalangtush Bahodir bin Boyxo'jaboy (1655/56 yillar)
- 2.Amir Sultonquli (1666 yil)
- 3.Malika Iqlimabonu Yalangtushbiy qizi (1657 yil)
- 4.Malika Oybibi Yalangtushbiy qizi (1666 yil)
- 5.Shoh Hidoyat ibn Shoh Qosim. Afg'oniston podshohi (1668 yil)

6.Shoh Saodat ibn Shoh Hidoyat Afg'oniston podshohi (1688 yil), shuningdek, daxma atrofida boshqa qabrlar ham mavjud. Eng oxirgi kabr bundan 200 yil oldin qo'yilgan.

Dahbeddagi «Maxdumi A'zam» masjidi Yalangtush Bahodir tomonidan 1619 yili qurdirilgan va o'z zamonasining madaniy markazlaridan hisoblangan. «Maxdumi A'zam» masjidi hovlisida 500 yoshdan oshgan chinor bo'lib, uning tana qismi g'ovak shakliga kirib kolgan. Hazrati Maxdumi A'zam bir asarida «Din va mukaddas kitoblar inson uchun, insonni ma'naviy-axloqiy kamolotga yetkazish uchun berilgandir.

Inson din uchun emas, balki din inson uchun yaratilgandir» mazmunidagi fikrlari bayon qilingan. Haqiqatdan ham mustaqillik sharofati ila Dahbed qo'rg'oni tubdan o'zgartirilib, ulkan ishlar natijasida chiroyli shahar ko'rinishiga aylantirildi. 1991 yil «Maxdumi A'zam» ziyoratgohi ta'mirlandi va yangidan ochildi. 1998 yil to'liq qaytadan ta'mirdan chiqarildi. 2014 yilga kelib esa keng ko'lamli obodonlashtirish ishlari olib borildi.

2014 yilda «Maxdumi A'zam» xotirasini abadiylashtirish bo'yicha jamoatchilik komissiyasi huzuridagi o'zini-o'zi boshqaradigan mustaqil nodavlat xayriya jamg'armasi tuzildi. Ziyoratgohning umumiy maydoni 38040,73 kv.m bo'lib, qabriston, mevali va manzarali daraxtlardan tashkil topgan bog'ni o'z ichiga oladi. Ziyoratchilar mashinasi uchun alohida to'xtash joyi barpo kilindi. Yo'laklarga plitalar yotkizilib, elektr chiroklari o'rnatildi. 500 yildan oshgan chinor atrofiga o'ziga mos holatda o'rindiklar o'rnatilib, ziyoratchilar dam oladigan sharoit yaratildi.

Xulosa. Samarqand shahri qadim tarixdan boshlab, to bugungi kungacha o'zining milliy urf-odat va an'analari, nodir tarixiy obidalari, go'zal tabiati va mehmondo'st xalqi bilan dunyoning turli hududlaridan tashrif buyuruvchilarning diqqat markazida bo'lib kelmoqda.

Samarqand bugun chinakam turistlar shahriga aylandi. Bu shaharga dunyoning turli tomonlaridan minglab sayyohlar tashrif buyurmoqdalar. Ular qadimiy shaharning sehrli oqshomlarida sayr qilishib, Sharqning jozibali ertak va rivoyatlarini tinglaydilar. O'zbekiston ajdodlardan bugungi kungacha saqlanib qolgan me'moriy yodgorliklari bilan faxrlanadi.

Bizning monumental san'at sohasida amalga oshirgan yana bir ulkan ishimiz tabarruk zaminimizda tug'ilib voyaga yetgan va mangu topgan buyuk aziz avliyolarimiz xotirasiga yodgorlik majmualari barpo etganimizda namoyon bo'ldi. Jumladan, Hazrati Maxdumi A'zam majmuasi, Imom Buxoriy va Imom Moturidiy singari yodgorlik majmualarini yaratdik. Xalqimiz hayotida chuqur iz qoldirgan, bugungi kunda tom ma'noda muqaddas ziyoratgohlarga aylangan bunday majmualar ma'naviy olamimizni yuksaltirishga ulkan hissa bo'lib qo'shildi, desak, har tomonlama to'g'ri bo'ladi.

Bugunda O'zbekistondagi yodgorliklar go'zal va ulkan. Bu yurtda qadim xarobalar, madrasa, maqbara va minoralarda saqlanib qolgan qadim tarixning nafasini his etish mumkin.

ADABIYOTLAR:

1. Лавров В.А. Градостроительная культура Центральной Азии. М., 1950.
2. 2.Л.Ю. Маньковская "Типологические основы архитектуры Центральной Азии ". Ташкент: Фан, 1980.
3. Д.А. Нозилов "Народная архитектура". Ташкент. Наука, 1982.
4. Gayratovna, I. D., & Sodiqovich, D. V. (2022, October). IMOM MOTURIDIY MAQBARASINING HOZIRGI HOLATI, UMUMIY MAYDONI VA LANDSHAFTI HAQIDA MA'LUMOT. In Proceedings of International Conference on Scientific Research in Natural and Social Sciences (Vol. 1, No. 1, pp. 113-118).

5. Gayratovna, I. D., & Erkinovna, I. Y. (2022). ARCHITECTURE OF THE MOSQUE OF CENTRAL ASIA AESTHETIC EXPRESSION. *Galaxy International Interdisciplinary Research Journal*, 10(2), 684-687.

6. Gayratovna, I. D., & Zilola, A. (2022). Leisure Parks in the Regional Centers of the Samarkand Region. *Texas Journal of Multidisciplinary Studies*, 9, 68-69.